



UDK: 378

**Xatira GAYBULLAYEVA,**

*Tashkent davlat pedagogika universiteti dotsenti v.b., PhD*

*E-mail: xatiragaybullayeva@gmail.com*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti, PhD A.Jabborova taqrizi asosida*

## HISTORY AND INTERPRETATION OF LINGUISTIC AND CULTURAL ISSUES OF TRANSLATION

Аннотация

In this article, the comparative study of literary works is gaining momentum in translation studies, the national literature has its own linguistic and cultural characteristics, and the influence of linguistic and cultural aspects in literary translation is studied.

**Key words:** translation studies, artistic work, linguistic and cultural, culture, communicative.

## ИСТОРИЯ И ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ ПЕРЕВОДА

Аннотация

В данной статье в переводоведении набирает обороты сравнительное изучение литературных произведений, национальная литература имеет свои лингвокультурные особенности, изучается влияние лингвокультурологического аспекта в художественном переводе.

**Ключевые слова:** переводоведение, художественное творчество, лингвокультурологическое, культурологическое, коммуникативное.

## TARJIMANING LINGVOMADANIY MASALALARI TARIXI VA TALQINI

Аннотация

Ushbu maqolada tarjimashunoslikda baadiy asarlarni qiyosiy tadqiqi jadal tus olayotgani, milliy adabiyotning o'ziga xos lingvomadaniy xususiyatlarga egaligi va badiiy tarjimada lingvomadaniy jihatlarining ta'siri o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** tarjimashunoslik, badiiy asar, lingvomadaniy, madaniyat, kommunikativ.

**Kirish.** Jahon tarjimashunosligida turli badiiy asarlarni qiyosiy tadqiq qilish tobora jadallashib bormoqda. Ma'lumki, tarjima inson faoliyatining eng qadimiy turlaridan biri bo'lib, u tufayli biz jamiyat taraqqiyoti tarixining barcha tafsilotlarini ochiq-oydin tasavvur etamiz. Tarjima xalqaro do'stlik, qardoshlik va hamkorlik manfaatlariga, xalqlar o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, ilmiy, madaniy va adabiy aloqalarning kengayishiga xizmat qiluvchi qudratli quroldir. U turli xalqlar adabiyotlarining o'zaro aloqasi va bir-biriga ta'siri jarayonini tezlashtiradi. Tarjima asarlari tufayli kitobxonlar jahon adabiyoti durdonalaridan bahramand bo'ladi. Shu bilan birga, badiiy tarjima xalqlar o'rasidagi madaniy qarashlar rivojlanish sur'atini jadallashtiruvchi, madaniyatlararo muloqotni takomillashtiruvchi vosita sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda, ayniqsa Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish borasida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. "Davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish"[1] dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilab berildi. Bu borada tarjimashunoslikning lingvomadaniy xususiyatlarini ingliz va o'zbek tillari misoli orqali qiyosiy aspektida ilmiy tadqiq etish, o'zbek tarjimachiligini yanada takomillashtirish, xorijiy tillardan ona tiliga bevosita yoki bilvosita tarjimalar farqini anglash, turli frazeologik va stilistik vositalarni tarjimada qayta ifodalashiga bag'ishlangan tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish alohida ahamiyat kasb etadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Har bir milliy adabiyot o'ziga xos lingvomadaniy xususiyatlarga ega. Shuning uchun ham bu tarjimondan alohida ijodkorlik va me'yor talab qiladi. Zero, u tarjimada ham milliy adabiyotga xos ifoda shakllarini qo'llashi, ham asliyatning o'ziga xosligini yo'qotib qo'ymasligi kerak. V.G.Belinskiy: "Har qanday tuyg'u va har qanday fikrning poetik bo'lishi uchun ular obrazli ravishda ifodalinishi lozim"[2] – deb ko'rsatadi.

Bizning fikrimizcha, deyarli har qanday matnda til birliklarining o'ziga xos funksiyasini – stilistikani tashkil etadigan

muayyan yo'llar, nutq shakllari yoki boshqa lingvomadaniy xususiyatlar mavjud. Turli lingvomadaniy xususiyatlarni tildan tilga tarjima qilish dastlabki hissiy va estetik ma'lumotlarni saqlash yoki o'zgartirishga yordam beradigan maxsus o'zgarishlarni talab qiladi. Tarjima uslublarini o'rganish muhimligi, tarjima qilishda asliyatning madaniy ta'sirini aks ettirish ilmiy uslub matnining lingvomadaniy xususiyatlarini yetarli darajada yetkazish zarurati bilan bog'liq.

Tarjima dunyo madaniyatining taraqqiyotida muhim o'rin tutgan va tutib kelmoqda. Madaniyat xususida fikr yuritganda uning milliyligi va o'ziga xosligi tushuniladi. Badiiy tarjimada lingvomadaniy xususiyatlarning ta'sirini o'rganar ekanmiz, bu sohada qator xorijiy va mahalliy olimlar turli tadqiqotlar olib borgan. Ammo hanzur bir tildan ikkinchi tilga bevosita tarjimalarda asliyat mazmunini qayta ifodalash masalasini o'rganish dolzarb bo'lib qolmoqda.

Masalaning tarixini o'rganish jarayonida bizni bu borada qilingan asosiy nomzodlik va doktorlik ishlari bilan tanishib chiqishni taqazo qiladi. O'zbek tarjimashunosligida tadqiqotchilar qiyosiy tarjimashunoslik muammolarini o'rganishda asosiy e'tiborni tasviriy vositalar, frazeologik iboralar, realiyalar, maqol va matallarga qaratganlar. Misol tariqasida Sh.Isakova[3], M.Bakaeva[4] Z.Jumaniyozov[5], G.Qobiljonova[6], va N.Dosboevar[7]ning ishlarini eslab o'tish o'rinlidir.

Lingvokulturologiyani lingvomamlakatshunoslikdan ham ajratish lozim. Lingvomamlakatshunoslik va lingvokulturologiya o'rganish ob'ektlariga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Lingvomamlakatshunoslik tilda o'z aksini topgan milliy realiyalarni o'rganadi. E.M.Vereshchagin va V.G.Kostomarovlarga ko'ra, milliy realiyalar muqobilsiz til birliklari bo'lib, ular mazkur madaniyatga xos bo'lgan hodisalarni ifodalaydi.

Lingvokulturologiya tilni madaniyat fenomeni sifatida o'rganuvchi fan bo'lib, o'zaro aloqadorlikda bo'lgan til va madaniyat uning predmetini tashkil qiladi. Binobarin, V.N.Teliya bu haqda shunday yozadi: "Lingvokulturologiya insoniy,

aniqrog'i, insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fandir. Bu esa shuni bildiradiki, lingvokulturologiya markazi madaniyat fenomeni bo'lgan inson to'g'risidagi antropologik paradigmagacha xos bo'lgan yutuqlar majmuasidir"[8].

G.G.Slishkinga ko'ra, "Lingvokulturologiya inson omiliga, aniqrog'i, insondagi madaniyat omiliga yo'naltirilgan. Lingvokulturologiyaning markazi madaniyat fenomenidan iborat bo'lishi inson haqidagi fanning antropologik paradigmagacha tegishli hodisa ekanligidan dalolat beradi"[9].

O'zbek tilshunosligida lingvokulturologik tadqiqotlar oxirgi o'n yilliklarda paydo bo'la boshladi. Jumladan, Z.I.Solievning nomzodlik ishida o'zbek va ingliz tillaridagi sentensiya, ya'ni axloqiy-talimiy xarakterdagi matnlarning milliy-madaniy xususiyatlari yoritilgan[10]. D.Xudoyberganovning "Matnning antroposentrik tadqiqi"[11] nomli monografiyasining alohida bobi o'zbek tilidagi matnlarning lingvokulturologik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Shuningdek, professor N. Mahmudovning "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab..." nomli maqolasida lingvokulturologiyaning mohiyati va bu sohada muammolar ko'rsatib berilgan.

Madaniy almashinuv Toledo tarjima maktabi orqali o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqadi. Toledo maktabida



1-rasm. Ingliz madaniyatida "erta" tushunchasining ahamiyati

Asosan, ingliz va o'zbek tillarida bunday frazeologik birliklarni baholashga ijobiy qaraladi, ammo salbiy tomonlari ham kuzatilishi mumkin:

Masalan, **go to sleep at the same time as the hens** madaniy tushunchasini o'zbek tilida uchratmaymiz. Aksincha, ertalab vaqtlil turishni xo'roz qichqirishiga qarab olish o'zbek madaniyati va turmush tarziga aylangan. Shuni aytish mumkinki,


tarjimalar Arab tilidan Lotin tiliga, keyinchalik Ispan tiliga qilingan, bu esa o'z navbatida Yevropa Uyg'onish davrining ilmiy va texnikaviy rivojiga katta hissa qo'shgan. Tarjima tarixi bu munosabatlarni alohida davrlarga bo'lib o'rganadi. Tarjima tarixidagi davrlar o'z ichiga qonli urushlarni hamda imperiyalarning kengayishini olishi mumkin, ammo tarjima tarixining rivoji hech qachon oddiy jarayon bo'lib qolmagan.

"Madaniyat – murakkab, serqirra hodisa, u kommunikativ faoliyatli, yaxlit va ramziy tabiatga ega. U insonning moddiy qadriyatlarini ijtimoiy ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol qilish tizimidagi o'rnini belgilaydi. U yaxlit, o'ziga xos individuallikka, umumiy g'oya va uslubga ega, ya'ni bu hayot bilan mamot, ruh bilan moddiylik o'rtasidagi kurashning alohida ko'rinishidir. Madaniyat – insonning makon va zamonda faoliyat yuritishiga imkon beruvchi maxsus shakl hisoblanadi"[12].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Turli mamlakatlarda, turlicha madaniy qarashlar majudligi bilan biz tadqiqot qiladigan mavzu nafaqat dolzarb, balki bugungi kun xalqlar o'rtasidagi mushtarak madaniyatlararo muloqotni shakllanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi degan umiddamiz. Masalan, ingliz madaniyatida "erta" tushunchasi o'zbek tiliga qaraganda muhim. Ayniqsa biznes va ishbilarmonlar doirasida muvaffaqiyatga erishish va muvaffaqiyatli bo'lish uchun siz juda erta turishingiz kerak:

ingliz va o'zbek tillari o'rtasida ayrim hollarda madaniy tafovutlar uchrab turadi.

Ingliz madaniyati uchun kelajakni rejalashtirish ko'proq xarakterlidir. Inglizlar o'zbeklar kabi o'tmishda yoki hozirda emas, balki kelajakda yashaydilar. Ular allaqachon o'zlarining kelajagini, ba'zi voqealarni, muvaffaqiyatlarni va hokazolarni kutadi:



2-rasm. Inglizlarda "kelajak" tushunchasining ahamiyati

Inglizlar hamma narsani o'zgartirish mumkin va o'zgartirib bo'lmaydigan narsa yo'qligiga ishonishadi, o'zbek xalqi esa ba'zi voqealarning muqarrarligiga, hamma narsa oldindan belgilab qo'yilgan, ya'ni mavjudlik o'zbek madaniyatiga ko'proq xosdir.

Ingliz va o'zbek tillarida "kech" lingvomadaniy xususiyatga ega tushunchalar unchalik ko'p uchramaydi. Ushbu lingvomadaniy xususiyatni ijobiy ham, salbiy ham baholash mumkin.

Ikkala tilda ham harakatsizlikdan ko'ra harakat afzalroqligini quyidagi tasvirda ko'rib chiqamiz:



3-rasm. Ingliz va o'zbek tillarida "kech" lingvomadaniy xususiyatining ahamiyati

Lingvomadaniy xususiyatlarda madaniyat vakillarining fikrlash tizimi orqali turli xil yo'nalishni ochib beradi. Lingvomadaniy xususiyatlar an'anaviy ravishda monoxronik va polixronik madaniyatlarni ajratadi va bu bo'linish turli mamlakatlar aholisining vaqt bilan qanday bog'liqligini kuzatishga asoslanadi.

**Tahlil va natijalar.** Monoxronik madaniyatlar (G'arbiy Yevropa va AQSh) vakillari vaqtini oldindan rejalashtirishga

moyil bo'lib, narsalarni birin-ketin joylashtirishadi. Shveysariyaliklar, nemislar, shvedlar, amerikaliklar va "vaqt bilan band" boshqa xalqlarning punktualligining kelib chiqishini etikasidan bilib olish mumkin.

Polixronik madaniyat vakillari (Janubiy Yevropa, Lotin Amerikasi, Afrika mamlakatlari) narsalarni imkoniyatlar to'plami sifatida rejalashtirishadi va hech qachon qat'iy ketma-ketlikda amalga oshirilmaydi.

Polixronik madaniyatlar odamlar, tarmoq va oila bilan muloqot qilishga qaratilgan bo'lsa, monoxronik madaniyatlar vazifaga yo'naltirilgan, rasmiy ma'lumotlar bilan ishlash va individual yutuqlarga qaratilgan bo'ladi. Masalan, inglizabon mamlakatlari polixronik (poliaktiv) ishbilarmonlik madaniyati hukmron bo'lganligi bilan ajralib turadi.

Tarjima tarixining ayrim davrlari juda yaxshi tadqiq qilingan. Misol tariqasida Injilning tarjima qilinishi, missionerlar, Hindistondagi Sharqshunos tarjimonlar kabilarning ishlarini olish mumkin. Shunday bo'lsada tarjima tarixida ko'plab o'rganilmagan davrlar mavjudki, ularni tadqiq qilish tarjimashunoslik va tarjima tarixining asosiy vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Olimlar yaqin yillar ichida mustaqil tarjimonlar va ularning ishlarini tadqiq qila boshlashdi. Angliyalik Konstans Garnett va Amerikalik Gregori Rabassa rus va lotin Amerikasi adabiyotining buyuk namunalari ingliz tiliga tarjima qilishlari bilan mashhurdirlar. Sharqiy Yevropadagi siyosiy erkinlikning uyg'onishi davrida Amerika va Angliya yozuvchilarining

qalamlariga mansub buyuk asarlarning tarjimalari paydo bo'la boshladi. Tarjima tarixi dunyo madaniyatidagi hal qiluvchi ammo ko'pincha ko'rinmas hisoblangan kesishuvlarning tarixi hamdir.

**Xulosa va takliflar.** Keyingi yillarda badiiy tarjimaning madaniyatlararo muloqotdagi o'rni alohida ta'kidlanmoqda. Tarjima halqlarning bir birlari bilan muloqot qilishlari va o'zaro tajriba almashinishlari uchun keng imkoniyatlar yaratib bermoqda desak yanglishmaymiz. Tarjimaning rivojlanishi natijasida dunyo adabiyotining rivojlanishi ham keng ko'lamlar bilan bormoqda. Bunga misol qilib, g'arb adabiyotida yaratilgan adabiy janrlarning sharq adabiyotiga kirib kelishini va sharq adabiy janrlarining g'arb adabiyotida munosib o'rin egallashini misol qilish mumkin.

Mamlakatimiz madaniyatining shakllanishida, xalqimizning ma'naviy, axloqiy, intellektual saviyasining oshishida tarjimaning o'rni ham alohidadir. Aynan badiiy tarjima bizga dunyo madaniyatlarining eng go'zal qirralarini o'zlashtirishga va salbiy taraflari hususida mulohaza qilishni o'rgatdi.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/-5058351>
2. В.Г.Белинский. Мақолалар. – Тошкент: Ўздавнашр, 1951. – Б.141.
3. Исакова Ш.И. "Бадий таржимада миллийлик ва тарихийликнинг акс эттирилиши (Ойбекнинг "Навоий" романи французча таржимаси мисолида)" ЎзМУ. Фил.фан.ном. Тошкент, 2004, -130 б.
4. Бақоева М.К. "Англия, Акш адабиётидан ўзбек тилига шеърлий таржима ва қиёсий шеършунослик муаммолари" БухДУ, . Фил.фан.док. Тошкент, 2004, -305б.
5. Жуманиёзов З.О. "Равшан" достони немисча таржималарида миллийликни қайта яратиш" Ал Хоразмий номидаги Урганч ДУ фил.фан.ном. Урганч, 2008, -156 б.
6. Қобилжонов Г.К. "Метафоранинг системавий лингвистик таҳлили" Тил ва адабиёт институти. Фил.фан.ном. Тошкент, 2000, -211 б.
7. Н.Т.Досбоева "Бевосита таржимада бадий услубни қайта тиклаш". (Америка ҳикоялари таржимаси мисолида) Филол. фанлари номзод... дисс. автореф. – Т., 2011. -126.
8. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. –М.: Школа "Языки русской культуры", 1996. –С. 222
9. Слышкин Г.Г. От текста к символу. Лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании дискурса. –М.: Издательский центр «Академия», 2000. –С. 91.
10. Салиева З.И. Концептуальная значимость и национально-культурная специфика предложения в английском и узбекском языках: Автореф. дисс...канд.филол.наук. –Ташкент, 2010. –С. 25
11. Худойберганаева Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. –Тошкент: Фан, 2013. –Б. 49.
12. Воркачев С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: Становление антропологической парадигмы в языкознании // Филологические науки. – 2001. – №1. – С. 64.